SURXONDARYO VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Ochilova Gulasal Muzaffarovna
Termiz davlat universiteti Geografiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20740930

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyat sanoatining asosiy tarmoqlari, jumladan, yoqilg'i-energetika, qurilish materiallari, oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi o'rganilgan. Shuningdek, sanoatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy resurslar, mehnat resurslari, transport-geografik omillar hamda investitsiyaviy imkoniyatlar yoritilgan. Tadqiqot natijasida viloyat sanoatining hududiy rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari baholangan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, sanoat, hududiy tarkib, sanoat tarmoqlari, iqtisodiy geografiya, sanoatlashuv, tabiiy resurslar, mehnat resurslari, investitsiyalar, hududiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируются территориальная структура и особенности развития промышленности Сурхандарьинской области. Изучено территориальное размещение основных отраслей промышленности региона, включая топливно-энергетическую, строительных материалов, пищевую и легкую промышленность. Также освещены природные, трудовые и транспортно-географические факторы, влияющие на развитие промышленности, а также инвестиционные возможности. В результате исследования оценены тенденции и перспективы территориального развития промышленности области.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, промышленность, территориальная структура, отрасли промышленности, экономическая география, индустриализация, природные ресурсы, трудовые ресурсы, инвестиции, территориальное развитие.

Abstract: This article analyzes the territorial structure and development characteristics of the industry in the Surxondaryo region. The territorial distribution of the main industrial sectors of the region, including fuel and energy, construction materials, food, and light industries, is studied. Furthermore, natural resources, labor resources, transport-geographic factors, and investment opportunities influencing industrial development are highlighted. As a result of the study, the trends and prospects of the territorial development of the region's industry are evaluated.

Keywords: Surxondaryo region, industry, territorial structure, industrial sectors, economic geography, industrialization, natural resources, labor resources, investments, territorial development.

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va hududlarni mutanosib rivojlantirish sharoitida har bir iqtisodiy rayonning sanoat salohiyatidan samarali foydalanish va uning hududiy tarkibini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining eng janubiy hududi bo‘lgan Surxondaryo viloyati an’anaviy ravishda agrar-industrial o‘lka hisoblansa-da, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tarkibiy islohotlar natijasida viloyat sanoatining salmog‘i va uning hududiy tuzilmasi tubdan o‘zgarib bormoqda. Hududning o‘ziga xos geologik tuzilishi, boy mineral-xomashyo zaxiralari, agroklimatik resurslari va demografik o‘sish sur’atlari sanoat tarmoqlarining joylashishi va ixtisoslashuvini belgilab beruvchi fundamental omillar bo‘lib xizmat qiladi. Surxondaryo sanoatining bugungi holati va taraqqiyot tendensiyalarini o‘rganish, ishlab chiqarish kuchlarini tumanlar kesimida oqilona joylashtirish hamda hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish nafaqat viloyat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, balki aholini barqaror ish o‘rinlari bilan ta’minlash nuqtayi nazaridan ham o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sanoatning hududiy tarkibi va joylashishi muammolari iqtisodiy geografiya fanining asosiy tadqiqot obektlaridan biri bo‘lib, mazkur muammoni tizimli-tarkibiy, qiyosiy-geografik va iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilish viloyat sanoat tuzilmasidagi ijobiy siljishlar va mavjud to‘siqlarni ilmiy asosda baholashga imkon beradi.

Surxondaryo viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibiga nazar tashlasak, unda mahalliy xomashyo zaxiralariga tayanadigan yengil sanoat (to‘qimachilik, tikuvchilik, paxtani qayta ishlash), oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda yoqilg‘i-energetika va tog‘-kon sanoati yetakchi o‘rinlarni egallashini ko‘rishimiz mumkin. Viloyatda aholi jon boshiga olingan YaHM hajmi 2022-yilda 12,56 mln somni (respublika boyicha ortacha korsatkich 24,92 mln som) tashkil etgan bolib, mamlakatimiz hududlari orasida bu jihatdan oxirgi orinlardan birini egallaydi.Qishloq, ormon va baliq xojaligida mintaqa YaHMning 46,5 % i (respublika boyicha 23,4 %), sanoat va qurilishda 14,8 % i (respublika boyicha 31,1 %), xizmatlar sohasida 36,1 % (respublika boyicha 38,7 %) yaratildi, sof soliqlar ulushi esa 2,6 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ni tashkil etgan. Songgi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida qishloq, ormon va baliq xojaligining salmogi biroz osgan.Surxondaryo viloyati sanoat mahsuloti boyicha respublika hududlari ichida songgi orinda turadi. Mintaqa respublika miqyosida,

asosan, yengil sanoat (mamlakatda ishlab chiqarilgan yengil sanoat mahsulotining 3,5 %), qurilish materiallari sanoati (2,9 %) va oziq-ovqat sanoatining (2,0 %) rivojlanishi bilan ajralib turadi. Surxondaryo viloyatining sanoati tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga 88,5 %, elektr, gaz, bug bilan taminlash va havoni konditsiyalash hissasiga 7,0 %, tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 2,9 %, suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigish va utilizatsiya qilishga 1,6 % togri keladi (2022-y.).

Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida yengil sanoatning ulushi eng yuqori bolib, 40,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, oziq-ovqat, un- yorma va omuxta-yem sanoati (20,2 %), kimyo va neft-kimyo (7,4 %) va elektr energetika sanoatining (7,0 %) ulushi nisbatan yuqori. Sanoatning tarmoqlar tarkibida songgi yillarda yoqilgi, kimyo va neft-kimyo sanoatining salmogi ortmoqda.

Surxondaryo viloyatidagi sanoat korxonalari tomonidan 2022-yil mobaynida 15,0 ming tonna paxta tolasi, 101,5 ming tonna un, 2,3 ming tonna osimlik yogi ishlab chiqarilgan. Viloyatda 2022-yilda 232,3 mln kWh elektr energiyasi ishlab chiqarilgan (respublika boyicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 0,3 %). Elektr energiya, asosan, Topalang GESi da ishlab chiqarilgan. Yoqilgi sanoatining yirik korxonalari qatoriga “Shargunkomir” va “Jarqorgonneft” zavodlari kiradi.

Viloyat sanoatining hududiy tarkibida viloyat markazining ulushi ancha yuqori bolib, 17,7 % ga teng. Shuningdek, Jarqorgon (14,2 %), Shorchi (11,2 %) va Sariosiyo (10,7 %) tumanlarining ulushi nisbatan yuqori. Eng past ulush Boysun (1,6 %), Bandixon (1,8 %) va Angor (2,1 %) tumanlariga tegishli. Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga ortib borayotganligi bevosita klaster tizimining joriy etilishi va yirik investitsiyaviy loyihalarning ishga tushirilishi bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, paxta-to‘qimachilik klasterlarining tashkil etilishi natijasida ilgari viloyatdan faqat paxta xomashyosi olib chiqilgan bo‘lsa, bugungi kunda tayyor ip-kalava, mato va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Oziq-ovqat sanoatida esa meva-sabzavotchilik klasterlari va agrologistik markazlar tarmog‘ining kengayishi viloyatda yetishtirilayotgan erta pishar va subtropik mahsulotlarni chuqur qayta ishlash hamda eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Sanoatning hududiy joylashishi va geografik tarkibi esa viloyat ichida resurslarning, aholi zichligining va transport infratuzilmasining notekis taqsimlanganligi sababli o‘ziga xos chuqur differensial xarakterga ega.

Viloyat sanoatining hududiy joylashuv tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismi an’anaviy ravishda transport yo‘llari rivojlangan va aholi zich yashaydigan markaziy hamda janubiy zonalarda to‘plangan. Viloyatning eng yirik sanoat va savdo tuguni bu Denov iqtisodiy

rayoni hisoblanadi. Denov tumani va uning atrofidagi hududlar o‘zining qulay geografik o‘rni va yuqori mehnat resurslari tufayli yengil va oziq-ovqat sanoatining yirik markaziga aylangan bo‘lib, bu yerda vino-aroq, sharbatlar, sut va go‘sht mahsulotlari hamda un-yorma mahsulotlarini qayta ishlovchi o‘nlab yirik va o‘rta korxonalar faoliyat ko‘rsatadi. Ikkinchi yirik sanoat markazi bu Termiz shahri va uning atrofidagi tumanlar bo‘lib, bu yerda sanoat ishlab chiqarishi ko‘proq xalqaro transport-logistika imkoniyatlariga va erkin iqtisodiy zonalar ("Termiz" erkin iqtisodiy zonasi) imtiyozlariga tayanadi hamda kimyo sanoati, metallni qayta ishlash va farmatsevtika kabi nisbatan yangi tarmoqlar rivojlanmoqda.

Surxondaryoning tog‘ va tog‘oldi tumanlari esa o‘zining noyob mineral-resurs salohiyatiga ko‘ra og‘ir sanoat va tog‘-kon sanoatiga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Sariosiyo tumanida joylashgan yirik "Sharg‘unko‘mir" aksiyadorlik jamiyati respublikada toshko‘mir qazib chiqaruvchi eng strategik obektlardan biri bo‘lib, uning modernizatsiya qilinishi viloyat yoqilg‘i sanoatining salmog‘ini keskin oshirdi. Boysun tumani esa o‘zining yirik uglevodorod zaxiralari bilan mashhur bo‘lib, bu yerda qurilayotgan va ishga tushirilayotgan ulkan "Boysun gaz-kimyo majmuasi" nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida kimyo va gaz sanoatining yirik flagmaniga aylanmoqda. Qurilish materiallari sanoati ham o‘z xomashyo bazasiga ega bo‘lib, Sherobod tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik sement zavodlari va boshqa qurilish konstruksiyalari ishlab chiqaruvchi korxonalar tog‘oldi hududlaridagi ohaktosh, gips va loy zaxiralaridan samarali foydalanmoqda hamda ushbu mahsulotlar qulay transport o‘rni tufayli qo‘shni Afg‘oniston bozori ehtiyojlarini qoplashga yo‘naltirilgan.

Biroq, viloyat sanoatining hududiy tarkibida muayyan nomutanosibliklar va tizimli muammolar ham mavjud bo‘lib, ishlab chiqarishning ma’muriy tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi turlichadir. Masalan, Denov, Termiz va Sherobod tumanlari yalpi sanoat mahsuloti hajmining katta qismini ta’minlayotgan bir paytda, Qiziriq, Bandixon, Oltinsoy yoki Muzrabot kabi tumanlarda sanoatning rivojlanish darajasi hamon pastligicha qolmoqda va bu hududlar asosan xomashyo yetishtiruvchi agrar tumanlar sifatida saqlanib turibdi. Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablari infratuzilma ta’minoti, xususan, elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvi ta’minotidagi uzilishlar, shuningdek, chekka tumanlarda transport-logistika tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Yana bir muhim xususiyat — sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanish darajasi pastligi va mahsulotlarning

tayyorlik darajasi chuqur emasligidir, ya'ni eksport tarkibida hamon yarim tayyor mahsulotlar ulushi yuqori hisoblanadi.

Kelajakda Surxondaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun bir qator strategik yo'nalishlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Birinchidan, sanoat darajasi past bo'lgan tumanlarda agrosanoat klasterlari va mahalliy xomashyoni (meva, sabzavot, go'sht, sut) qayta ishlovchi kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali hududiy nomutanosiblikni kamaytirish lozim. Ikkinchanidan, "Yashil iqtisodiyot" va energiya tejamkor texnologiyalarni sanoatga keng joriy etish, ayniqsa, viloyatning yuqori quyosh radiatsiyasi salohiyatidan foydalanib, sanoat korxonalari muqobil energiya manbalariga bosqichma-bosqich o'tkazilishi kerak. Uchinchidan, Sherobod sement sanoati va Boysun gaz-kimyo sanoati atrofida kichik va o'rta sun'iy yo'ldosh korxonalar (sanoat ekotizimi) tarmog'ini yaratish orqali yakuniy tayyor mahsulot ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish zarur. To'rtinchidan, "Termiz" xalqaro savdo markazi va erkin iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan foydalanib, import o'rnini bosuvchi va eksportbop yuqori texnologiyali mashinasozlik, maishiy texnika va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibi va rivojlanish xususiyatlarini oqilona boshqarish, sanoat quvvatlarini hududlar tabiati, resurslari va mehnat salohiyatiga mos holda joylashtirish viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydi va periferik tumanlarni industrial markazlarga aylantirish orqali aholi turmush darajasini oshirishga, viloyatning mamlakat iqtisodiyotidagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatda sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
2.Soliyev A.S. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent, 2014.
3.Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha yillik ma'lumotlari va to'plamlari.
4.Asanov G.R. Iqtisodiy geografiya asoslari. – Toshkent, 2010.
5.Allanov Q. A.,Abdimo'minov B.O "Global iqlim o'zgarishi ,uning oqibatlari va unga moslashish " Termiz , 2018
6.Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi .Darslik .Surxonnashr.2024